




AKADEMIYA
GOOGLE

RAQAMLI OB'KT
IDENTIFIKATORI



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI,
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BINOSI
"SOTSIOLOGIYA" KAFEDRASI



ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8032420>

Chop
etilgan sana:
2023-yil 20-may

KONFERENSIYA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLiyAT YURITADI:

1. ZAMONAVIY IJTIMOIY VOQE'LIKNING O'ZIGA XOSLIGI VA ZAMONAVIY JAMIYAT DINAMIKASINI ANIQLASH
2. MINTAQAHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI
3. MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR
4. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA | ONLINE ZOOM PLATFORMA MATERIALLAR TO'PLAMI

TOSHKENT
2023-YIL 25-MAY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH TADQIQOTCHILAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



[HTTPS://NUU.UZ](https://nuu.uz)

OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
SOTSILOGIYA KAFEDRASI
"IJTIMOIY FIKR" RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZI

ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi
(Toshkent, 25-may 2023-yil)
MATERIALLAR TO'PLAMI



2-BO'LIM

TOSHKENT-2023

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRY KENGASHI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER


@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

MAQOLADA KELITIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31-dekabr 1059-son Qarori.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. O‘zb. T.: “Fan”, 1968.
8. Alisher Navoiy. Hikmatli so‘zlar. –T.:O‘zbekiston KPMK nashr., 1985. – B. 142.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, T.: Fan, 2000. – B. 264.
10. Avloniy A. Guliston yoxud axloq. –T.:O‘qituvchi, 1967. 128 bet.
11. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2020. – B. 436.
12. Gay Haskins, Michael Thomas, Lalit Johri. Kindness in Leadership. Edited By. Copyright Year 2018. (<https://www.routledge.com/Kindness-in-Leadership/Haskins-Thomas-Johri/p/book/9781138207349>).
13. Ferial Pearson. Secret Agents of Kindness.
14. David R. Hamilton. Why Kindness Is Good for You. (<https://www.amazon.com/Why-Kindness-Good-David-Hamilton/dp/1848501781>).
15. Peggy Payne and Allen Lux. The Healing Power of Doing Good.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8057714>

HARBIY SOTSILOGIYA: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xaydarov Abror

f.f.n., dotsent. O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: a.khaydarov1954@mail.ru

Mirjavxarova Farida

magistrant

O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada harbiy sotsiologiyaning vujudga kelishi, shakllanishi, harbiy-sotsiologik tadqiqotlarning amalga oshirilish jarayonlari tarixi, O‘zbekistonda harbiy sotsiologiyaning rivojlanishi istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sotsiologiya, harbiy madaniyat, harbiy-kasbiy faoliyat, harbiy sotsiologiya, harbiy-sotsiologik tadqiqotlar, jamiyat-davlat-armiya, “ruhiyat indeksi”.

MILITARY SOCIOLOGY: FORMATION AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Haydarov Abror

Candidate of philosophy, associate professor

National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: a.khaydarov1954@mail.ru

Mirjavkharova Farida

graduate student

National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article analyzes the emergence, formation of military sociology, the history of the processes of implementation of military-sociological research, the prospects for the development of military sociology in Uzbekistan

Keywords: sociology, military culture, military-professional activity, military sociology, military-Sociological Research, Society-State-Army, "psyche index".

Insoniyat hamisha tinch va osoyishta yashashga intilib kelgan. Biroq odamzod umrining aksar qismi katta-kichik konfliktlar va urushlar bilan o'tgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, sayyoramizda 15000 ga yaqin katta-kichik urush va nizolar bo'lib o'tgan hamda ularda 3,5 mlrdga yaqin kishi halok bo'lgan [1]. Afsuski, bu kabi xunrezliklar dunyoning turli nuqtalarida hanuz davom etmoqda. Urush va nizolarning kelib chiqish sabablari, uni keltirib chiqargan oqibatlari, tinchlik va barqarorlik masalalarini tadqiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda, bunda harbiy soha va harbiy xizmatchilar faoliyatini o'rganish hamda tahlil etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammolar an'anaviy ravishda ijtimoiy fanlar, xususan harbiy-siyosiy tarix doirasida o'rganib kelingan. Yuqoridagi muammolarni yanada maqsadga muvofiq o'rganilishi ehtiyojlari esa sotsiologiyaning tarmoq sohasi bo'lgan harbiy sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga zamin bo'ldi. Harbiy sotsiologiya paydo bo'lishining sharoitlari umumiy sotsiologiyaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Tarixan dastlab harbiy sotsiologiya ijtimoiy falsafa, harbiy san'at nazariyalari "ichida" bo'lgan.

Harbiy sotsiologiya umumiy sotsiologiyaning bir qismi bo'lib, u XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sotsiologik bilimning alohida bir yo'nalishi sifatida ajralib chiqdi. Harbiy sotsiologiyaning bu davrda vujudga kelishi o'sha paytda harbiy mutaxassislar tomonidan XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarni to'g'ri anglab olinganligi va o'sha paytdagi ijtimoiy fanlarda falsafa va sotsiologiya g'oyalari, tamoyillari va metodlarining ta'siri natijasida ilmiy-ijtimoiy bilish mantiqiga ishonchning oshib borganligining natijasi edi. Bu o'z navbatida harbiy sotsiologiyaning obykti, predmeti va funksiyalari aniqlanishini ta'minlagan. Harbiy kasbiy faoliyat harbiy madaniyatdan ajralmas bo'lib, u harbiy xizmatchilarning submadaniyati, shu jumladan turmush tarzi, qadriyatlar va me'yorlar, til, marosimlar, ramzlar, moddiy, badiiy madaniyat va san'atni o'z ichiga oladi. Harbiy madaniyat davlat va qurolli kuchlar tomonidan harbiy xizmatning ma'naviy asoslarini va harbiy xizmatchilar shaxsini shakllantirish maqsadida maqsadli shakllantiriladi.

XIX asrda umumiy sotsiologiyaning paydo bo'lishi va institutsionallasuvi harbiy ma'muriyat, jangovar sharoitlarda odamlarning hatti-harakatlari, armiyada xizmat qilish motivlari va jamiyatning harbiy sohasi bilan bog'liq boshqa hodisalar va jarayonlar to'g'risida ma'lumot to'plashning ilmiy usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga hissa qo'shdi. Adolat yuzasidan, "harbiy sotsiologiya" atamasini birinchi bo'lib rus olimi N.A.Korf muomalaga kiritganligini qayd qilish lozim [2, 66].

XX asrda zamonaviy harbiy sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi esa asosan AQShda 1920-1930-yillarda sotsiologiyaning umumiy yuqori darajasi va rivojlanish sur'ati bilan bog'liq bo'lgan. Urush davrida eng yaxshi ilmiy kuchlar – Amerika universitetlarining yetakchi olimlari deyarli barcha davlat va harbiy tashkilotlar va axborot-tahliliy, razvedka-targ'ibot va axloqiy-psixologik profil muassasalarida ishlash uchun safarbar qilingan edi. Biroq, AQShda harbiy sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyatiga dastlab to'g'ri baho berilmagan. Chunonchi, 1941-yil iyun oyida AQSh Mudofaa vazirligida armiya shaxsiy tarkibiga oid tadqiqotlarni o'tkazishni taqiqlovchi buyruq chiqqan [3], chunki generalitetning aksariyati bu tadqiqotlarda chiqarilishi mumkin bo'lgan tanqidiy xulosalar harbiy tashkilotni bo'shashtiradi, armiyani obro'sizlantiradi deb hisoblangan. Harbiy xizmatchilarning axloqiy, psixologik va jangovar ruhini o'rganish bilan bog'liq holda, Amerika armiyasida sotsiologik tadqiqotlarning o'ziga xos "ilk tarixi" qiziqish uyg'otadi. 1930-yillarning oxirida AQSh sotsiologlari qo'shinlarda axloqiy-ruhiy holatni o'rgana boshladilar, askarlarning urush va jangovar xatti-harakatlarga bo'lgan ijtimoiy munosabati qoniqarli emasligi ma'lum bo'ldi. Biroq, bu xulosalar harbiy rahbarlarning fikrlariga zid edi, ularga ko'ra, askarlar harbiy harakatlarda faol ishtirok etishga tayyor, qandaydir tadqiqotlar esa ularni chalg'itishi mumkin, xolos. Ammo, 5 oy o'tgach, sotsiologlar va psixologlar guruhiga Pirl-Harbor (1941-yil 7-dekabrda yapon harbiy-havo kuchlari deyarli yakson qilgan AQSh harbiy-degiz bazasi) voqealaridan bir kun o'tib, piyoda askarlar bo'linmasidan bittasini istisno tariqasida tekshirishga ruxsat berildi. Tadqiqot rahbari S.Staufferning yozishicha, birinchi marta armiyaning ahvoli xususida manfaatdor



ofitserlarning xolislik darajasi shubhali bo'lgan axborotlarini va sotsiologiya fanining yangi metodlarini qo'llanilishidan olingan ma'lumotlarni taqqoslash imkoniyati berilgan edi. Shu tariqa "Amerika askari" sotsiologik tadqiqot loyihasi ishga tushdi. Shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan so'rovlar natijasida armiyada rahbarlik tizimi va ba'zi usullari xususida hisobot tayyorlangan. Bu hisobot xulosalari asosida harbiy bo'linmalarda rahbarlik qilishning bir qator metod va tamoyillari qayta ko'rib chiqilgan va ularga bir qator o'zgarishlar kiritilgan. Ikkinchi natija – armiyada asosan ijtimoiy-psixologik xarakterga ega bo'lgan tizimli tadqiqotlarni tashkil etish edi. Tadqiqot mavzusi – axloqiy iqlim, bo'linmalardagi kayfiyat, harbiy munosabat va boshqalar. Masalan, askarning jang maydonidagi hatti-harakatini oldindan aytib berishga katta e'tibor berilgan. Har bir rota uchun jangdan oldin va jangdan birmuncha keyindagi holati uchun "ruhiyat indeksi" (ya'ni ruhiy-ma'naviy kayfiyat ma'nosida) tuzilgan. Bu indekslar taqqoslangan va turli xil hisob-kitoblar qilingan. "Ruhiyat indeksi" yuqori bo'lgan uchta rotani jangdan oldin "axloqiy indeksi" past bo'lgan boshqa uchta rota bilan taqqoslaganda, bu rotalarning jangovar bo'lmagan (ruhiy xastaliklar va hokazolar) talafotlari (yo'qotishlari) turlicha bo'lgan. Indeksi past bo'lgan rotalarda bu miqdor katta bo'lgan. Bo'lib o'tgan voqealardan so'ng, sotsiologlar endi harbiy sohada ishlash uchun hech qanday to'siqlarga ega bo'lmadilar va darhol bu vaziyatdan foydalanishdi. Urush yillarida Amerika armiyasida jami 250 dan ortiq tadqiqotlar o'tkazildi, yarim milliondan ko'proq odam turli xil so'rovnomalar bilan qamrab olindi.

Stauffer armiyada doimiy ijtimoiy kuzatuvlar (monitoring)ni o'tkazishni taklif qildi – bu askarlarning ruhiy holatini doimiy nazorat qilish tizimi edi. Olingan natijalar asosida harbiy faoliyatda askarlarning xatti-harakatlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi qonuniyatlarni aniqlandi.

Hozirgi davrga kelib harbiy sotsiologiya ham sotsiologiyaning mustaqil tarmog'i sifatida rivojlanmoqda. Harbiy sotsiologiya harbiy muammolarni aniqlash va hal qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'lib, armiya muammolarini tadqiq etish orqali urush va tinchlik davrinig o'ziga xos xususiyatlarini hamda mohiyatini ochib beradi. Ammo, harbiy muassasalarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko'pincha keng jamoatchilikka oshkor qilinmaydi. Shu sababli sotsiologik manbalarda harbiy sohaga tegishli axborotlar bir qadar tanqisligini kuzatamiz. Harbiy sotsiologik tadqiqotlar jamiyat-davlat-armiyaning o'zaro ta'sir xususiyatlarini, harbiy xizmatchilarning bu munosabatlardagi rolini, harbiy xizmatchi shaxsining manfaatlarini va kasbiy tajribasini, turmush tarzini va ularning ushbu o'zaro munosabatlarining rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Ular asosida barcha qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mehnat munosabatlarini barqarorlashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Harbiy sotsiologik tadqiqotlar doirasida harbiy xizmatchilarning xatti-harakatlari, ongi, kayfiyati, xizmat faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa jihatlari o'rganiladi. Harbiy sotsiologiya sotsiologiyaning bir tarmog'i bo'lib, ijtimoiy birliklar (sinflar, guruhlar, jamoat tashkilotlari, jamoalar)ning Vatanni qurolli himoya qilish, shuningdek, jamiyat va armiya, qurolli kuchlarning tarkibiy elementlari ichki munosabatlaridagi va harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarining qonuniyatlari va mexanizmini o'rganadi.

Hozirgi zamondagi harbiy sotsiologik bilimlar tarkibida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi (yuqori) daraja, ya'ni harbiy sotsiologiyaning umumiy nazariyasi turli ijtimoiy birliklar, odamlarning urush va tinchlik muammosiga, mudofaa ishlariga, jamiyat va armiya, fuqarolik va harbiy tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'siriga bo'lgan munosabatini fundamental o'rganish bilan bog'liq.

Ikkinchi daraja – maxsus (xususiy) harbiy-sotsiologik nazariyalardir. U nisbatan yaxlit ijtimoiy organizm sifatida armiya hayotining umumiy muammolarini (Qurolli Kuchlarning ijtimoiy sohasi, harbiy mehnat va uning turlari sotsiologiyasi, harbiy hayot, dam olish va boshqalar), armiya tarkibidagi jamoalarni va ularning o'zaro ta'siri (harbiy jamoa sotsiologiyasi, harbiy kasblar, xodimlarning turli toifalari, rasmiy va norasmiy birlashmalar, harbiy xizmatchilarning oilalari va boshqalar), askarning shaxsiyati (harbiy xizmatchi, harbiy mutaxassislar turlari, rasmiy va norasmiy rahbarlar, shaxslararo munosabatlar)ni o'rganish bilan shug'ullanadi. Harbiy sotsiologiyaning uchinchi darajasi amaliy (konkret) harbiy sotsiologik tadqiqotlardir. Ularning vazifasi harbiy-ijtimoiy voqelik faktlarini, ya'ni harbiy xizmatchilarning, Qurolli Kuchlar tarkibidagi turli jamoalarning xulq-



atvori va mehnatini, shuningdek, ularning ma'naviy hayotini – nazariy va kundalik ongini, ijtimoiy o'zini namoyon qilishini, kayfiyatlar, vaziyat holatlari va boshqalarni o'rganishdir. Harbiy sotsiologiya doirasida nazariy va empirik darajalar o'zaro chambarchas bog'liq. Empirik sotsiologik tadqiqot ma'lumotlari asosida harbiy sotsiologiyaning maxsus (xususiy) va umumiy nazariyalari shakllanadi, ular o'z navbatida empirik tadqiqotlar uchun metodologik uslub-vositalar vazifasini bajaradi. Hozirgi davrda respublikamiz Qurolli Kuchlari tizimidagi harbiy oliy o'quv yurtlarida harbiy sotsiologiyani (fan+amaliyot+o'quv kursi uchligida) o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borish, empirik sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Qarorida "Harbiy okruglar boshqaruv apparatlarida "psixolog", "yetakchi sotsiolog" lavozimlari joriy etilishi" [4], 2019-yil 22-fevraldagi "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida "xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, shuningdek, tashqi siyosat sohasida – mamlakat mudofaa qobiliyatini, fuqarolar o'rtasida va dinlararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlashga, tashqi siyosat sohasidagi faoliyat samaradorligini yanada oshirishga yo'naltirilgan islohotlar to'g'risidagi jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilish" [5] kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib bu mamlakatimizda harbiy sotsiologiyaning fan-amaliyot-o'quv kursi sifatida rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, harbiy sotsiologiya fani va harbiy-sotsiologik tadqiqotlarni kelajakda izchil rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. "Harbiy sotsiologiya" bo'yicha davlat tilidagi adabiyotlar bazasini shakllantirish, va harbiy sotsiologik tadqiqotlar olib boruvchilar uchun mo'ljallangan sohaga oid darslik va o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yaratish.

2. Harbiy faoliyat va mudofaa sohaga doir sotsiologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tadqiqot natijalar asosida ilmiy maqola va monografiyalar chop etish.

3. Harbiy xizmatchilar faoliyatini takomillashtirishga doir sotsiologik tadqiqotlar olib borgan holda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Harbiy sohada "yetakchi sotsiolog" sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Qurolli Kuchlar xizmatchilarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish.

5. Qurolli Kuchlar xizmatchilari va ularning oila a'zolariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatning holati, muammo va kamchiliklarni empirik sotsiologik tadqiqotlar orqali o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish.

Adabiyotlar:

1. Войны в истории человечества// <https://www.krugosvet.ru/enc/istoriya/VONA.html>
2. Военная социология. Под ред. Верминенко.Ю., Соколовой И. – СПб.: Питер, 2020. – С. 66.
3. Андреева Г.М. Современная буржуазная эмпирическая социология. – М.: Мысль, 1965. – С. 45-46.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги ПҚ-3898-сон "Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини tubдан такомиллаштириш тўғрисида" ги Қарори // <https://lex.uz/docs/3854496>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февралдаги "Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-5667-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4211807>.
6. Zaitov E. Orphanhood as a complex social phenomenon causing controversy in the world of science. 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7975302>.

SHAHAR EKOTIZIMINI BOSHQARISHDA KOPENGAGEN TAJRIBASI

**Kalonov Komil**

Sots.f.n., professor

O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Xaydarova Xilola

Tayanch doktorant

O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada Kopengagen shahri ekotizimi, ekotizimning qulayliklari, shahar ekotizimining boshqaruvidagi amalga oshirilgan ishlar, olib borilgan yaxlit atrof-muhitni rejalashtirish siyosatining shahar ekotizimidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Kopengagen modelining yuzaga kelishi va uning mohiyatiga urg‘u berilgan. “Velosiped strategiyasi”ning shahar ekotizimidagi ijtimoiy voqelik sifatidagi o‘rni, xorijiy va mahalliy manbalarda yoritilganligiga ko‘ra tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: shahar ekotizimi, Kopengagen shahri, yashil poytaxt, velosiped strategiyasi, yashil hudud, regenerativ model.

THE COPENHAGEN EXPERIENCE IN URBAN ECOSYSTEM MANAGEMENT**Kamil Kalonov**

Candidate of sociology, professor

National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Khilola Haydarova

PhD student

National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article discusses the ecosystem of the city of Copenhagen, the amenities of the ecosystem, the work done in the field of urban ecosystem management, the role of an integrated environmental planning policy in the urban ecosystem. The emergence of the Copenhagen model and its essence are also emphasized. The role of the "bicycle strategy" as a social reality in the urban ecosystem is analyzed in terms of its coverage in foreign and domestic sources.

Keywords: urban ecosystem, Copenhagen city, green capital, cycling strategy, green zone, regenerative model.

Shahar o‘zining o‘ziga xos ekotizimi bilan mamlakat hududida o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Shu sababli ko‘plab insonlar shaharga qarab intiladilar, shaharda istiqomat qiluvchilar esa o‘zga shaharlarni o‘zlariga kashf etishni, o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishni va sayohat qilishni afzal bilishadi. Shaharga tashrif buyuruvchilar esa shaharning ko‘zga ko‘ringan elementlariga diqqat-e’tiborlarini qaratishadi va aynan o‘zlariga ma’qul joylarda rasmga tushishni, estalikka yoki tadqiqotlari uchun dalil sifatida olib qolishni maqbul bilishadi. Ya’ni shahar ekotizimi ularda o‘zgacha taassurotni uyg‘otadi. Biroq, shu shaharda istiqomat qiluvchi aholigina shahar ekotizimidagi muammolar bilan yuzlashadi, undagi ijobiy va salbiy jarayonlar bilan kun kechiradi. Biroq, hamma shahar aholisi ham shahar ekotizimidan qoniqish hosil qilavermaydi, achinarlisi esa boshqaruvdagi bu holatga ko‘z yumishdir. Shahar ekotizimi boshqaruvida intilish bor, biroq natija yetarli emas. Bunga esa, shaharning geografik joylashuvi, iqtisodi, siyosiy boshqaruvi, ekologik holati, ba’zan turli iqlim va hattoki urush ham sabab bo‘lib kelmoqda. Shu sababli bu kabi muammolarni eng olgan shaharlar ekotizimi boshqaruvini, bu boradagi xalqaro yondashuvlarni o‘rganish va ular erishgan tajribaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Shahar ekotizimini boshqarish ko‘plab yondashuvlarni talab etadi. Davrlar taqazosi bilan shahar ekotizimini boshqarish nafaqat milliy, shuningdek dunyoviy ahamiyat kasb eta boshladi. Sababi shundaki, shahar ekotizimi to‘laqonli ijobiy boshqarilmas ekan u insonning farovonligiga, shahar ekotizimining barqarorligiga, boshqa elementlarining saqlanib qolinishiga, ekotizim xizmatlarining to‘liq ko‘rsata olishiga imkon bermaydi. Shu sababli dunyo reytingida ko‘plab

MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

I-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

MEHRNING IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI POZITIV TRANSFORMATSIYALASH IMKONIYATLARI.....	6
Karimov Bobir	
HARBIY SOTSILOGIYA: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	9
Xaydarov Abror, Mirjavxarova Farida	
SHAHAR EKOTIZIMINI BOSHQARISHDA KOPENGAGEN TAJRIBASI.....	13
Kalonov Komil, Xaydarova Xilola	
КОМАНДООБРАЗОВАНИЕ КАК ПРОЦЕСС В КОЛЛЕКТИВЕ ОРГАНИЗАЦИИ.....	16
Сабилова Умида, Хусанбаева Диёра	
YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH – USTUVOR VAZIFA.....	18
Jiyanmuratova Gulnoz, Nurqulov Bunyod	
YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA OILA HAMKORLIGI.....	22
Axmedova Feruza	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY HIMOYA SOHASINING INSTITUTSIONAL O'ZGARISHI.....	25
Xushvaqova Nargiza	
RAQAMLI JAMIYATDA INTERNET KOMMUNIKATSIYALARINING JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIRI.....	28
Burxanov Xusniddin	
ZAMONAVIIY IJTIMOIIY VOQELIKNI AKS ETTIRISHDA AHOLINI RO'YXATGA OLIISH VA UNING SAVOLNOMA SHAKLLARINING O'RNI.....	32
Yeshniyazov Djamshid	
O'ZBEKISTONDA YAQIN TARIXDA MIGRATSIYA JARAYONLARI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	35
Axmedova Dildora	
СОЦИАЛЬНОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ В ОБРЕТЕНИИ ВЫСОКОГО СТАТУСА В ОБЩЕСТВЕ.....	37
Аликариев Нуриддин, Халикова Сахобат	
JAMIYATDAGI IJTIMOIIY STRATALARNING TARIXIIY TALQINI.....	40
Bekmurodov Hasan	
MIGRATSIYA OQIMIGA TORTUVCHI VA ITARUVCHI FAKTORLARNING TA'SIRI.....	42
Ahmedova Shahnozaxon	
YOSH RAHBARLARDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	44
Hakimova Anora	
ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI.....	46
G'ofurov Otabek	
TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – MUHIM MASALA.....	49
G'oyibov Elyor	
СОЦИАЛЬНАЯ ИЕРАРХИЯ И СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ: КАК СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ОПРЕДЕЛЯЕТ ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	52
Турсунов Диёр	

II-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

KEKSAYISH FENOMENI: QADRIYATLARDAGI O'ZGARISHLAR.....	56
Eryigitova Lobar	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIIYLASHUVI VA DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA DINIIY OMILNING ROLI.....	60
Xaydarov Abror, Sotvoldiev Asqarali Shuhrat o'g'li	

VYETNAM QADRIYATLARINING O'ZGARISHI VA XOTIN-QIZLARINING IJTIMOYIY HOLATI.....	62
Nurullayeva U.N.	
YANGI O'ZBEKISTON – IJTIMOYIY DAVLAT.....	66
Ibragimov Jahongir, Ablakulova Sitora	
JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR MUHOFAZASI VA ULARGA BO'LGAN EHTIROM.....	70
Mirsagatova Dinara	
ИНФОРМАЦИОННЫЙ ДОСУГ СТУДЕНТОВ.....	75
Решетников Иван, Иноятов Саидакбархон	
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISH TIZIMINI SHAKLLANISHINING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI (G'ARBIY YEVROPA VA AQSH MISOLIDA).....	78
Choriyeva Dilafruz	
MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR...82	82
Ernazarov B.O., Sultonova O.A.	
«HAMKORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....	85
Jaysanov Abduvahob	
SUBMADANIYATLAR VA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	88
Rashidova Shaxnoza	
MILLATNING ETNIK O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONI.....	91
Кадирова Якитжан	
QADIMGI YUNON IJTIMOYIY-MADANIY TAFAKKURI AL-FOROBIY MA'NAVYIY-AXLOQIY TA'LIMOTI MANBAI SIFATIDA.....	94
Yusubov Jaloliddin	
O'RTA OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI.....	97
Abdullayev Akmal	

III-SHO'BA. MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR

KEKSA AYOLLARNING SALOMATLIGI VA O'Z SOG'LIG'INI QADRLASH DARAJASI.....	100
Xodjayev Sobir	
HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING AFFILIATIV IMKONIYATLARI.....	104
Shokirov Sh.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR.....	108
Saparov Kuatbay	
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR O'RTASIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL JIHALTLARI.....	110
Hamzayev Bekzod	
РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	113
Катгакулова Наргиза	
YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYIY KAPITALINI YUKSALTIRISH.....	116
Astanov Axunjon	
DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOYIY MEKANIZMLARI.....	118
A'zamova Kumush	
IJTIMOYIY KAPITALINI YOSHLAR TURMUSH SIFATIGA TA'SIRI.....	120
Bozorova O'lmasxon	
МОТИВАЦИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЕ ПЕРСОНАЛА В ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ....	123
Аликариева Аълохон, Убайдуллаева Камилла	
BANDLIK VA MEHNAT FAOLIYATINI TADQIQ ETISH BORASIDAGI NAZARIYALARNING TARIXIY ASOSLARI.....	125
Fayzillayeva Visola	

OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	129
Teshayev Doniyor	
СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ.....	133
Султанова Феруза	
ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA IJODKOR YOSHLAR SOTSIAL QIYOFASINING O'ZIGA XOS SHAKLLARI.....	136
Dulanboeva Oygul	
IJTIMOIIY TARMOQLARDA YOSHLAR AXBOROT PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR.....	139
Erkinov Javohir	

IV-SHO'BA. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MUTAXASSISI BILAN O'QUV MARKAZLARI FAOLIYATI BO'YICHA SUHBAT VA UNING NATIJALARI XUSUSIDA.....	142
Kalanov Komil, Asamova Umida	
THE TRANSFORMATION OF BRITISH FOREIGN POLICY AFTER LEAVING THE EUROPEAN UNION.....	145
Rasulova Gavhar	
ZAMONAVIY DUNYODA RESPUBLIKANING AGRAR SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOT NATIJALARINING STATISTIK TAHLILI.....	148
Berdiqulov Qobil	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA YUMSHOQ KO'NIKMALARNING AHAMIYATI.....	151
Mannanova Nilufar	
IJTIMOIIY BOSHQARUVDA IDENTIKLIK VA BOSHQARUV MODELLARI.....	153
Musurmanov N.A.	
YANGI O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMINI TASHKIL ETILISHINING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	157
Kaxarova Nilufar	
IBN SINO ILMIY MEROSI – IJTIMOIIY TARAQQIYOT UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA.....	159
Adilova Rayxon	
FAROSAT SO'ZINING SHARQ MANBALARIDAGI LUG'AVIY TALQINI.....	161
Raximbayeva Oftobxon	
ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДЕЛИКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	163
Талипов Сухроб	
JAMOAVIY ONGGA TA'SIR MEKANIZMLARI TASNIFI.....	166
Saidova Maftunaxon	
IJTIMOIIY ISHCHI KASBI.....	169
Ibragimov Jahongir, Eshnazarova Madinaoy	
ВИЗУАЛЛИК ЛИНГВИСТИК КОДГА МУҚОБИЛ ТИЗИМ СИФАТИДА.....	171
Нажмиддинова Гулноза	
TALABALAR SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY ISHCHILARNING ROLI.....	173
Ibragimov Jahongir, Abduxoliqova Husniya	
O'ZBEK DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIIY ISH VA IJTIMOIIY SIYOSAT AN'ANALARI.....	176
Ibragimov Jahongir, Nomozova Shoxsanam	
OMMAVIY NOROZILIK HARAKATLARINING KELIB CHIQISHIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI (XORIJ DAVLATLARI MISOLIDA).....	179
Xasanov Boburjon	
INTERNET-GLOBAL AXBOROT TARMOG'INING YOSHLAR HAYOTIGA KO'RSATGAN TA'SIRI.....	182
Hamrayeva Vasila	

«НАМКORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....	184
Jaysanov Abduvahob	
AXBOROT MAYDONI YOSHLARNI IJTIMOIYLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	187
Ahmedova Mohinur	
СПЕЦИФИКА ВЛИЯНИЯ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-СИРОТ.....	190
Туракулова Азиза	
ЗАМОНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ИДЕНТИФИКАЦИЯСИ.....	192
Абдирашид Мирзахмедов, Ашурали Азимов	
ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ИЛМЙ ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.....	197
Нодира Махмудовна Мухаммадиева	

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAXRIRIY KENGASHI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutaevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)